

NAMANGAN VILOYATIGA IQTISODIY TA'RIF

Abdumalikova Mahliyo G'ulomjon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Bakalavr yo'nalishi 2-kurs talabasi

Anotatsiya : *Mazkur maqolada Namangan viloyatida ekosistemalardan foydalanish, suv omborlari va ularning iqtisodiyotdiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish bosqichida agrar sohaning rivojlanishi, Bozor iqtisodiyoti sharoitida demografik jarayonlarni rivojlanishi, Uychi tumani aholi punkitlarining rivojlanish xususiyatlari keltirilgan.*

Tayanch so'zlar : *Iqtisodiy ta'rif, ekosistema, suv ombori, agrar soha, suv ombori, aholi punkitlari, iqtisodiy islohotlar.*

ECONOMIC DESCRIPTION OF NAMANGAN REGION

Abdumalikova Mahliyo

2nd year Bachelor's degree student of the National University of Uzbekistan

Anotation: *This article presents the use of ecosystems in Namangan region, reservoirs and their importance in economic development, the development of the agrarian sector at the stage of deepening economic reforms, the development of demographic processes in the conditions of the market economy, the development features of the population centers (human settlements) of Uychi district.*

Keywords: *Economic definition, ecosystem, reservoir, agricultural sector, population centers (human settlements), economic reforms.*

Ekosistema deganda geografik qobiqdagi yer, tuproq, suv, o'simlik, hayvon, landshaft, yer osti boyliklari va hatto odam kabi mavjudotlar kiradi. Ekosistemalarning ikkita asosiy muammolari mavjud bo'lib, birinchisi- tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ularni tekislash va yangilashga sharoit yaratib berish, ikkinchisi – insonni o'rab turgan muhitni ishlab chiqarish vositalari tomonidan ifloslanishni oldini olishdan iborat.

Tabiat insoniyat mavjudligining zaruriy asosi, inson uchun hayot muhiti va moddiy resurslarining yakkayu-yagona manbai hisoblanadi. Atrof- muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan unumli foydalanish, shuningdek, tabiatni kelajak avlodlar uchun sof holda saqlash kabi bugungi kunda insoniyat uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlar, tabiatning kelajagi kurrimizdagi yashaydigan insonlarning ekologik madaniyatiga bog'liq. Inson tabiat uchun o'zaro munosabatda bo'lar ekan, ko'p hollarda tabiatdagi muhim jarayonlarga putur yetkazmoqdaki, insoniyatning hayoti oqibat natijasida ana shu jarayonlarga bog'liq

bo'lib qolmoqda. Ekosistema majmualari ichida yer resurslaridan foydalanish xarakteriga ularning sifati va meliorativ holati katta ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyat ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarining ilk bosqichlaridan boshlab mavjud suv zaxiralaridan oqilona foydalanish yo'llarini izlab topishni maqsad qilib qo'ygan. Ayniqsa, suv tanqisligi mavjud bo'lgan hududlarda yashovchi xalqlar va suv zaxiralaridan oddiy usulda foydalanishdan tortib, toki murakkab muhandislik-gidrotexnika inshootlari barpo qilish orqali amalga oshirgan. Namangan viloyati asrimizning 50 – yillaridan boshlab, mintaqada aholining tabiiy o'sishi ortib boorish bilan shunga mos ravishda aholini qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlariga ehtiyojlarini ham rivijlanishiga sabab bo'ladi. Ammo viloyat hududida mavjud daryo va soylar suv sarfining 2/3 qismi bahor va yoz oylariga to'g'ri kelishi va mavjud irrigatsiya shahobchalarining sug'orma dehqonchilikda foydalanishda jiddiy qiyinchiliklar tug'dira boshladi. Daryo suv sarfining sug'oriladigan maydonlarga nomutanosib ravishda bunday o'zgarishini ba'zi yillarda kuchli suv tanqisligiga sabab bo'ldi. 1970 – yildan boshlab viloyat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotida gidrotexnik inshootlar qurishning inqilobiy o'zgarishlari vujudga kela boshladi. Ayniqsa viloyat hududida Kosonsoy, Qorasuv, Chortoq, Eski Yer, Ko'kserak, Qoramurt, Varzik, Zarkent, Jiydali-soy kabi suv omborlarining qurilishi bilan foydali suv sig'imi 250.5 ming kub dan ziyod sun'iy suv havzalari natijasida viloyatga dehqonchilik qishloq xo'jaligining bosh sohasiga aylantirildi. Viloyat iqtisodiyotida agrosanoat majmuasi yetakchi tarmoq hisoblanadi. Shuning uchun ham suv omborlari tarixan qisqa vaqt ichida barpo qilingan bo'lsa-da, o'tgan vaqt ichida viloyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida juda katta o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Yurtimizda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy islohotlarni borishi, hamda agrar sohalarni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jamiyatimizni isloh qilish, makroiqtisodiy barqarorlikga erishish, iqtisodiyotning barcha sohalarini izchil rivojlanishini taminlash yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. O'tgan yillar davomida iqtisodiy o'sishga erishildi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli tarzda ko'paymoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirishni, islohotlarni chuqurlashtirishga, uning samaradorligini taminlashga qaratilgan aniq tadbirlar majmuasi qabul qilindi va muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Namangan viloyatida iqtisodiy islohotlar natijasida viloyatda ikki mingga yaqin fermer xo'jaliklar mavjud bo'lib, yaqin qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi salmog'i ortib bormoqda. Dehqon – fermer xo'jaliklari kelgusida tarmoqda yetakchi subektlarga aylanadi. Misol qilib Uychi tumanini oladigan bo'lsak Yorqo'rg'on qishlog'idagi fermer xo'jaliklarida 2019 – yil holatiga ko'ra 7 ta haydov, 19 ta chopiq traktorlari, 2 ta kombayn, 2 ta somon preslovchi traktorlar xizmatidan foydalanilgan. Paxtachiik va donchilikka ixtisoslashgan 28 ta fermer xo'jaliklarida 2019 yilda 813 gektar maydonga paxta, 680 gektar maydonga bug'doy ekib parvarishlangan. Bularning barchasi 2015 yilda fermer xo'jaliklarida qaytadan kichiklashtirib avvalgi 28 ta holatiga qaratilgan. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yana bir sababi mahsulotlar unumdorligini oshiribgina qolmay, bo'sh olgan aholini

ish bilan ta'minlashdan ham iborat. Yana bir narsani takidlab o'tish lozimki, Namangan viloyati respublikamizda serfarzand oilalar salmog'i bo'yicha oldingi o'rinlarda turadi. Ayniqsa, bu holat qishloq joylarida juda yuqoridir. Shuning uchun qishloq joylarida ijtimoiy infrastruktura tarmoqlarini rivojlantirish dolzarb masaladir. Albatta ijtimoiy infrastrukturani demografik jarayonlardagi o'zgarishlarni e'tiborga olmoq zarur. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy taraqqiyotning bir muncha barqarorlashganini buzulish munosabati aholini qashshoqlashishi kuzatiladi. Bu esa demografik jarayonlarni rivojlanishga ta'sir qiladi. Xususan, tug'ulishni kamayishi 2 – 3 farzandli oilalari salomatligini oshishi va sog'lom ona va sog'lom avlod kabi demografik holatlar asosiy o'rinni egallaydi. Ma'lumki, bir shaklga ega bo'lgan aholining hududiy joylanishi aholi manzillari deyiladi. Aholi manzillari aholi geografiyasi fanining muhim tarkibi bo'lib, aholini yashaydigan joylarigina bo'lib qolmay, balki moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqariladigan hamda iste'mol qilinadigan butun ijtimoiy hayotning asosiy markazlari hisoblanadi. Aholi manzillarining qiyofasi va moddiy shakllaridagi bir – biridan farqi asosan sotsial-iqtisodiy sharoitlari hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarining taraqqiyot darajasi bilan farqlanadi. Uychi tumani hududida azaldan kishilar yashab kelgan ko'xna joylardan biri hisoblanadi. Biroq uning hududi bo'ylab aholi bir davrda o'rnashib aholi manzillarini hosil qilmagan. Chunki aholi joylashuvida hududning relyef va iqlim sharoitlari qulayligi, suv hamda tabiiy va iqtisodiy infrastrukturalar bilan ta'minlanganligi muhim rol o'ynaydi. Tuman aholi punkitlarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanganligini o'rganish quyidagi xulosalarni berishga olib keladi, tumandagi mavjud aholi manzillari, joylashuvini asosiy yadrosini, mashhur iqtisodiy geograf N.Baransky aytganidek: "hududning karkas(sinch) larine tashkil etadi. Bu aholi qo'rg'onlari o'zaro aloqada rivojlanib, Uychi tumani aholi punkitlarining yagona tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda o'ziga xos ichki va tashqi iqtisodiy geografik, demografik, mikrogeografik va ekologik muammolar borki, ularni asta – sekin bartaraf qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boydedayev T. " Yorqo'rg'on Qishlog'i Tarixi".Ilmiy ommabop qo'llanma. T.: "Fazilat orgtex servis" chop etildi.
2. Soatov A, Yusupov R. Geomorfologiya asoslari.- T.: Universitet,2003.
3. Jo'liyev A.H., Soatov A, Yusupov R. Geolgiya asoslari.- T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasi,2001.
- 4 .Nurbek, A. (2021, December). The Combination of Social Relationships and Psychological Health. In Conference Zone (pp. 268-270).
- 5 .Nurbek, A. (2021). Management Psychology Leader and Its Characteristics. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI, 1(1), 13-16.
6. Nurbek, A. (2021). Psixologik Salomatlik Va Uning Mohiyati. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI, 1(6), 666-669.

7. Alijonov, N. (2022). IMPLEMENTING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF LEADERS IN THE FIELD OF EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 631-634.
8. Alijonov, N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF LEADERSHIP ACTIVITY. *Research Focus*, 1(4), 241-246.
9. Nurbek, A. (2023). SOCIAL PSYCHOLOGY OF ALTRUISM AND ALTRUISTIC BEHAVIOR. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 134-137.
10. ALIJONOV, N., & XULQ, A. I. P. V. A. (2023). ATVOR//JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES.
11. Alijonov, N. (2022). RAHBAR FAOLIYATI SAMARADORLIGIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING O 'RNI. *Мировая наука*, (3 (60)), 3-10.
12. ALIJONOV, N. (2023). ALTRUIZMNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIYASI VA ALTRUISTIK XULQ-ATVOR. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 1(5), 71-74.
13. "Nurbek, A., & Nematovna, S. N. (2022). MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA SENSOR TARAQQIYOT MUAMMOSI. *Uzbek Scholar Journal*, 4, 147-152."
14. Nurbek Ulug'bek o'g, A. (2023). THE WORLD'S ROLE OF UZBEK NATIONAL DRESSES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 17, 117-120.
15. Nurbek Ulug'bek o'g, A. (2023). BOSHQARUVCHI RAHBAR SHAXSGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR. *PEDAGOG*, 6(6), 451-458.
16. Nurbek Ulug'bek o'g, A. (2023). IJTIMOIIY MUNOSABATLAR VA PSIXOLOGIK SALOMATLIK UYG 'UNLIGI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(6), 266-272.
17. Alijonov, N. (2023). PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING RAHBAR FAOLIYATI SAMARADORLIGIDAGI O 'RNINI EMPIRIK TADQIQ QILISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6), 102-108.
- Nurbek Ulug'bek o'g, A. (2023). PSIXOLOGIK SALOMATLIK TUSHUNCHASI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(20), 162-166